

## FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

# KIR YUVISH MASHINASI



O'rnatishni boshlashdan oldin quyidagi yo'l-yo'riqlarni diqqat bilan o'qib chiqing. Shunda o'rnatish oson bo'ladi va jihozning to'g'ri va xavfsiz o'rnatilishi kafolatlanadi. O'rnatib bo'lgandan so'ng bu yo'l-yo'riqlarni ma'lumot sifatida jihoz yaqinida qoldiring.

UZ O'ZBEKCHA

\*\*V5\*\*\*\* \*\*T5\*\*\*\* \*\*V3\*\*\*\*

\*\*V7\*\*\*\* \*\*T7\*\*\*\* \*\*T3\*\*\*\*

\*\*V9\*\*\*\* \*\*T9\*\*\*\*



MFL69851137  
Rev.03\_100221

[www.lg.com](http://www.lg.com)

Copyright © 2019-2021 LG Electronics Inc. All Rights Reserved

Ushbu qo'llanmada siz xarid qilgan rusumga taalluqli bo'lmagan tasvirlar yoki tarkib bo'lishi mumkin.

Ushbu qo'llanma ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

|                                                        |           |
|--------------------------------------------------------|-----------|
| <b>MUHIM XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI .....</b>            | <b>3</b>  |
| ESKI JIHOZNI CHIQITGA CHIQARISH .....                  | 9         |
| <b>O'R NATISH .....</b>                                | <b>10</b> |
| Qismlar va texnik xususiyatlari .....                  | 10        |
| O'rnatiladigan joyga qo'yiladigan talablar .....       | 13        |
| Jihozni qadog'idan chiqarib olish .....                | 14        |
| Jihozni tekis joylashtirish .....                      | 15        |
| Suv kirish shlangini ulash .....                       | 16        |
| Drenaj shlangini o'rnatish .....                       | 18        |
| <b>ISHLATISH .....</b>                                 | <b>19</b> |
| Ishlatishning qisqacha bayoni .....                    | 19        |
| Kirlarni yuvishga tayyorlash .....                     | 19        |
| Kir yuvish vositalari va yumshatgichlar qo'shish ..... | 21        |
| Boshqaruv paneli .....                                 | 23        |
| Dasturlar jadvali .....                                | 26        |
| Qo'shimcha opsiyalar va funksiyalar .....              | 33        |
| <b>AQLLI FUNKSIYALAR .....</b>                         | <b>36</b> |
| LG ThinQ ilovasidan foydalanish .....                  | 36        |
| Smart Diagnosis (Aqlli tashxislash) .....              | 39        |
| <b>TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH .....</b>                  | <b>40</b> |
| Har bir yuvish siklidan keyin tozalash .....           | 40        |
| Jihozni davriy ravishda tozalab turish .....           | 40        |
| <b>NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH .....</b>              | <b>44</b> |
| Xato haqidagi xabarlar .....                           | 44        |
| Nosozliklarga tashxis qo'yish .....                    | 46        |
| <b>KAFOLAT .....</b>                                   | <b>51</b> |
| <b>JIHOZ ISHLASHI HAQIDA MA'LUMOT .....</b>            | <b>54</b> |

## FOYDALANISHDAN AVVAL BARCHA KO'RSATMALARNI O'QIB CHIQING

Quyidagi xavfsizlik ko'rsatmalari kutilmagan xavflar hamda jihozdan ehtiyotsizlik bilan yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan zararlarning oldini olishga mo'ljallangan.

Ushbu ko'rsatmalar quyida ko'rsatilganidek “OGOHLANTIRISH” va “DIQQAT” belgilari bilan qismlarga ajratilgan.

### Xavfsizlik xabarlarlari



Ushbu belgi xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holat va amallarni bildiradi. Mazkur belgi bilan ajratilgan qismni ehtiyotkorlik bilan o'qing va xavfning oldini olish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.



#### **OGOHLANTIRISH**

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.



#### **DIQQAT**

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik yengil jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

### OGOHLANTIRISH



#### **OGOHLANTIRISH**

**Mahsulotdan foydalanish asnosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyotkorlik choralariga amal qiling:**

### Uydagi bolalar

Ushbu jihoz jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi yetarli bo'lmagan shaxslar (jumladan, bolalar) tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanmagan.

Yuqorida sanab o'tilgan toifadagi shaxslar jihozdan qanday foydalanish haqida ko'rsatma olganlaridan so'ng va ularning xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan shaxs nazorati ostidagina foydalanishlari kerak. Bolalar jihozni o'ynashiga yo'l qo'ymang.

### **Yevropada yashaydigan iste'molchilar uchun ma'lumot**

- 8 yoshdan katta bolalar, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi yetarli bo'lmagan shaxslar jihozdan mavjud xavfni tushungan holda undan xavfsiz foydalanish haqida ko'rsatma olganlaridan so'ng va ularning xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan shaxs nazorati ostida foydalanishlariga ruxsat etiladi. Bolalar mahsulot bilan o'ynashlari mumkin emas. Kattalar nazoratisiz bolalar tozalash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirmasliklari kerak.
- 3 yoshgacha bo'lgan bolalar doimiy nazoratsiz jihozga yaqinlashmasliklari kerak.

### **Texnika xavfsizligi**

- Ushbu jihoz 8 yosh yoki undan katta bolalar, jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi kam shaxslar tomonidan ishlatilishi mumkin, bunda ularning xavfsizligi uchun javobgar biror shaxs jihozdan foydalanishda ularni nazorat qilib turishi yoki ko'rsatma berib turishi lozim. Bolalarning jihoz bilan o'ynashiga ruxsat bermang. Jihozni tozalash va unga texnik xizmat ko'rsatish nazoratsiz bolalar tomonidan amalga oshirilmasligi lozim.
- 3 yoshdan kichik bolalar muntazam nazorat ostida bo'lmasa, jihozga yaqinlashmasligi kerak.
- Elektr kabeli shikastlangan hollarda yetishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish uchun u ishlab chiqaruvchi, uning xizmat ko'rsatish agenti yoki boshqa malakali shaxslar tomonidan almashtirilishi kerak.
- Ventilyatsiya tirqishlari gilam bilan to'sib qo'yilmasligi kerak.
- Bu jihoz faqat uy sharoitida foydalanish uchun mo'ljallangan va quyidagi kabi holatlarda foydalanish uchun mo'ljallanmagan:



- Do‘konlar, ofislar va boshqa ishxonalarda xodimlar oshxonasi hududlarida;
  - Fermerlik uylarida;
  - Mehmonxonalar, motellar va boshqa shunga o‘xshash turar-joylarda mijozlar tomonidan;
  - Yotoqxona va nonushta turidagi muhitlarda;
  - Ko‘p kvartirali uylar va kir yuvish xonalaridagi umumiy foydalanish joylarida
- Yangi shlang yoki jihoz bilan birga taqdim qilingan shlanglar to‘plamini ishlatish. Eski shlanglar ishlatilsa, suv sizib chiqishi va natijada mulkka zarar yetishi mumkin.
  - Suv bosimi 50 bilan 800 kPa orasida bo‘lishi kerak.

## **O'rnatish**

- Agar jihoz shikastlangan, noto‘g‘ri ishlayotgan, qismlarga ajratilgan yoki qismlari yetishmayotgan yoki singan, jumladan, shnur yoki vilkasi shikastlangan bo‘lsa, uni ishlatmang.
- Bu jihozni ikki yoki undan ortiq kishi mahkam ushlagan holda joyidan ko‘chirishi lozim.
- Jihozni nam va chang joyga o‘rnatmang. Jihozni tashqariga yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri, shamol yoki yomg‘ir tegadigan, harorat muzlashgacha boradigan joylarga o‘rnatmang yoki saqlamang.
- Ajralib ketmasligi uchun drenaj shlangini mahkamlab qo‘ying.
- Agar elektr shnuri shikastlangan yoki rozetkaning teshigi bo‘shab qolgan bo‘lsa, shnurni ishlatmang hamda vakolatli xizmat ko‘rsatish markaziga murojaat qiling.

- Bu jihozni ko'p o'rinli rozetka, uzaytirgich kabel yoki adapter yordamida ulamang.
- Bu jihoz qulflanadigan eshik, suriluvchi eshik yoki qarama-qarshi qulfi bor eshik orqasiga o'rnatiladigan bo'lsa, jihoz eshigining to'liq ochilishiga xalaqit bermaydigan tarzda bo'lishi kerak.
- Bu jihozni yerga ulash shart. Agar jihoz noto'g'ri ishlasa yoki buzilib qolsa, elektr tokini eng kam qarshilik ko'rsatadigan tomonga yo'naltirib yuborish orqali tok urishining oldi olinadi.
- Bu jihozning elektr shnuri uskunani yerga ulash simi va vilkasi bilan jihozlangan. Barcha mahalliy qonun-qoidalarga muvofiq tarzda o'rnatilgan va yerga ulangan rozetkadan foydalanish shart.
- Uskuna yerga ulash simi noto'g'ri ulansa, tok urishi xavfi yuzaga keladi. Jihoz yerga to'g'ri ulanganligiga amin bo'lmasangiz, malakali elektrik yoki xizmat ko'rsatish xodimiga murojaat qiling.
- Jihoz bilan birga yetkazib berilgan vilkani o'zgartirmang. Agar u rozetkaga to'g'ri kelmasa, malakali texnik tomonidan tegishli rozetka o'rnatilishi kerak.

## **Ishlatish**

- Panellarni ajratishga yoki jihozni qismlarga ajratishga urinmang.
- Jihozni ishlatish uchun boshqaruv paneliga hech qanday o'tkir buyumlarni qo'llamang.
- Jihozning hech qaysi qismini ta'mirlamang yoki almashtirmang. Ushbu Foydalanuvchi qo'llanmasida boshqacha tavsiya etilgan hollardan tashqari barcha ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlari malakali xizmat ko'rsatish xodimlari tomonidan amalga oshirilishi kerak. Faqat zavoddan chiqarilgan ehtiyot qismlarni ishlatang.
- Jihoz ichiga uy hayvonlari yoki boshqa jonzotlarni solmang.
- Jihoz tagi va atrofi iplar, qog'oz, latta-putta, kimyoviy moddalar va shu kabi yonuvchi materiallardan xoli tutilsin.
- Jihoz eshigini ochiq qoldirmang. Bolalar eshikka osilishi yoki jihoz ichiga kirishi mumkin, natijada jihozga shikast yetkazishi yoki jarohat olishi mumkin.

- Yangi shlang yoki jihoz bilan birga taqdim qilingan shlanglar to'plamini ishlatib. Eski shlanglar ishlatilsa, suv sizib chiqishi va natijada mulkka zarar yetishi mumkin.
- Yonuvchan yoki portlovchi moddalar (masalan, mum, mum tozalagich, moy, bo'yoq, benzin, yog'ni yo'qotuvchi modda, kimyoviy tozalash eritmalari, kerosin, yoqilg'i, dog'ni ketkazgich, skipidar, sabzavot yog'i, iste'mol yog'i, atseton, spirt va hokazolar) bilan tozalangan, yuvilgan, ivitilgan yoki dog' tushgan matolarni solmang, yuvmang yoki quritmang. Noto'g'ri foydalanish oqibatida yong'in yoki portlash sodir bo'lishi mumkin.
- Jihoz ishlab turganida uning ichki qismlariga tegmang. Baraban butunlay to'xtashini kuting.
- Suv toshib ketsa, tokdan sug'uring va LG Electronics mijozlarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Jihoz eshigi ochiq turganida uni qattiq pastga bosmang.
- Yuqori haroratli dastur paytida eshikka tegmang.
- Jihoz yaqinida (benzol, benzin, suyultirgich, neft, spirt va hok. kabi) yonuvchan gaz va yonadigan moddalarni ishlatmang.
- Agar drenaj shlangi yoki kirish shlangi qishda muzlab qolsa, ishlatishdan oldin eriting.
- Kir yuvish vositalari, yumshatgich va oqartirgichlarni bolalardan uzoqda tuting.
- Ho'l qo'lingiz bilan elektr vilkasiga yoki jihozning tugmalariga tegmang.
- Elektr kabelini haddan ortiq bukmang yoki ustiga og'ir buyum qo'ymang.
- Bu mashinada kiyim va matolardan boshqa narsalar, gilamcha, bo'yra, oyoq kiyim yoki uy hayvonlari qoplamalarini yuvmang.
- Bu jihozdan faqat uy sharoitida foydalanish lozim, ko'chma sharoitda foydalanish mumkin emas.
- Agar gaz (izobutan, propan, tabiiy gaz va hok.) sizib chiqayotgan bo'lsa, jihozga yoki elektr vilkasiga tegmang hamda darhol xonani shamollating.

## **Texnik xizmat ko'rsatish**

- Namlik yoki changni yaxshilab tozalab tashlagandan so'nggina elektr vilkasini rozetkaga ulang.
- Jihozni tozalashdan oldin uni elektr ta'minotidan uzib qo'ying. Tugmalarni O'CHIQ yoki kutish rejimiga o'tkazish orqali jihoz elektr ta'minotidan uzilmaydi.
- Jihozni tozalash uchun uning ichiga yoki sirtiga suv sepmang.
- Jihozni tokdan uzishda elektr kabelidan tortmang. Doim vilkani mahkam ushlang va rozetkadan to'g'ri yo'nalishda tortib chiqaring.

## **Yuvish va quritish mashinasi uchun xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar**

- O'simlik moyi yoki iste'mol moyi bilan kirlangan buyumlar yong'inga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ularni quritkichga solmaslik kerak.
- Benzin, kimyoviy tozalash uchun mo'ljallangan eritkich yoki boshqa tez yonadigan moddalar bilan tozalangan yoki bunday moddalar tekkan buyumlarni quritkich barabaniga solmang.
- Penorezina (shuningdek, "lateks penorezina") yoki tuzilishi rezinaga yaqin buyumlarni quritish barabanida issiqlik bilan ishlov berish dasturida quritmaslik kerak,
- Metal qismli ichki kiyimni quritkichga solmang.
- Quritkich barabaniga rezina buyumlar, penorezina to'ldirilgan kiyim-kechaklar, yostiqlar, kalish va rezina tennis poyafzallarini solmang.
- Kirlangan buyumlarni quritmang.
- Dush birikmalari kabu platmassadan ishlangan buyumlarni, suv o'tmaydigan go'dak tagliklarini quritkich barabaniga solmang.
- Mato yumshatkichi yoki shunga o'xshash vositalar ishlab chiqaruvchisi tavsiyasiga ko'ra bunday vositalardan quritish barabanida o'zgarmas elektr toki ta'sirining oldini olish uchun foydalanish mumkin.

- Hech qachon quritish jarayoni tugallanmasdan turib barabanli quritkichni to'xtatmang yohud barcha buyumlar tezda chiqarib olinishi va issiqlik tarqaladigan qilib taqsimlanishi kerak.

## Chiqitga chiqarish

- Eski jihozni chiqitga chiqarishdan oldin uni tokdan uzing. Har ehtimolga qarshi jihoz orqasidan kabelni qirqib tashlang.
- Qadoq materiallari (plastik paketlar va penoplast)ni bolalardan uzoqroqda chiqitga chiqaring. Qadoq materiallari bo'g'ilib qolishga sabab bo'lishi mumkin.
- Bolalar yoki mayda jonivorlar ichiga qamalib qolmasligi uchun jihozni chiqitga chiqarishdan oldin eshigini olib tashlang.

## Eski jihozingizni chiqitga chiqarish




- Ushbu chiziqli g'ildirakli axlat qutisi belgisi chiqindiga chiqarilgan elektr va elektron mahsulotlarni (WEEE) maishiy chiqindilardan alohida chiqitga chiqarilishi kerakligini bildiradi.
- Eski elektrotexnika mahsulotlarida zararli moddalar bo'lishi mumkin, shuning uchun eski jihozlarni tegishli tarzda chiqitga chiqarish atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta'siri oqibatlarini oldini olishga yordam beradi. Eski uskunalarda boshqa mahsulotlarni ta'mirlashda qayta ishlatilishi mumkin bo'lgan qismlar, shuningdek, cheklangan resurslarni tejash maqsadida qayta ishlanishi mumkin bo'lgan boshqa qimmatbaho materiallar bo'lishi mumkin.
- Qurilmangizni xarid qilingan do'konga olib borishingiz yoki yaqin atrofdagi WEEE chiqindi to'plash punkti bo'yicha ma'lumot olish uchun mahalliy davlat idorasi bilan bog'lanishingiz mumkin. Mamlakatingizga oid so'nggi ma'lumotlar uchun quyidagi manzilga murojaat qiling: [www.lg.com/global//recycling](http://www.lg.com/global//recycling).

## Qismlar va texnik xususiyatlari

### IZOH


- Jihoz sifatini yaxshilash uchun ko'rinishi va texnik xususiyatlari avvaldan xabar berilmasdan turib o'zgartirilishi mumkin.

### Old tomondan ko'rinishi



- ❶ Boshqaruv paneli
- ❷ Kir yuvish vositasi taqsimlagichi tortmasi
- ❸ Baraban
- ❹ Eshik
- ❺ Qopqoq
- ❻ Drenaj nasosi filtri
- ❼ Drenaj tiqini
- ❽ Rostlanadigan oyoqchalar

### Orqa tomondan ko'rinishi



- ❶ Elektr vilkasi
- ❷ Tashish boltlari
- ❸ Drenaj shlangi

## Anjomlar

\* Xarid qilingan modelga bog'liq ravishda bu xususiyat farq qilishi mumkin.



- ❶ Sovuq suv kirish shlangi\*
- ❷ Gayka klyuchi
- ❸ Tashish boltlari teshigini yopuvchi tiqinlar\*
- ❹ Drenaj shlangini mahkamlash uchun halqasimon qisqich\*

## Texnik xususiyatlari

| Rusum                                       | F*V*N***, F*V*W***, F*V*H***,<br>F*T*N***, F*T*W***, F*T*H*** | F*V*Q***, F*V*T***, F*V*V***,<br>F*T*Q***, F*T*T***, F*T*V*** |
|---------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|
| <b>Yuvish sig'imi</b>                       | <b>6 kg, 6.5 kg, 7 kg</b>                                     | <b>7 kg, 8 kg, 9 kg</b>                                       |
| Elektr ta'minoti                            | 220 - 240 V~, 50 Gs                                           |                                                               |
| Mahsulot vazni                              | 62 kg                                                         | 61 kg                                                         |
| Maks. quvvat                                | 1700 Vt                                                       | 2100 Vt                                                       |
| Ruxsat etilgan suv bosimi                   | 50- 800 kPa (0.5 - 8.0 kgs / cm <sup>2</sup> )                |                                                               |
| Energiya samaradorligi darajasi (IEC 60456) | <b>A</b>                                                      | <b>A</b>                                                      |


- Quritish funksiyasi mavjud bo'lgan rusumlarda amal qiladi:

| Rusum                                      | F*V*VG***, F*T*VG***                           | F*V*TG***, F*T*TG***                |
|--------------------------------------------|------------------------------------------------|-------------------------------------|
| <b>Yuvish sig'imi</b>                      | <b>9 kg (yuvish) - 5 kg (quruq)</b>            | <b>8 kg (yuvish) - 5 kg (quruq)</b> |
| Elektr ta'minoti                           | 220 - 240 V~, 50 Gs                            |                                     |
| Mahsulot vazni                             | 67 kg                                          |                                     |
| Maks. quvvat                               | 2100 Vt (yuvish) - 1250 Vt (quruq)             |                                     |
| Ruxsat etilgan suv bosimi                  | 50- 800 kPa (0.5 - 8.0 kgs / cm <sup>2</sup> ) |                                     |
| Energiya samaradorligi darajasi (EN 50229) | <b>A</b>                                       |                                     |

| Rusum                                      | F*V*HG***, F*T*HG***                           | F*V*NG***, F*T*NG***                |
|--------------------------------------------|------------------------------------------------|-------------------------------------|
| <b>Yuvish sig'imi</b>                      | <b>7 kg (yuvish) - 4 kg (quruq)</b>            | <b>6 kg (yuvish) - 4 kg (quruq)</b> |
| Elektr ta'minoti                           | 220 - 240 V~, 50 Gs                            |                                     |
| Mahsulot vazni                             | 62 kg                                          |                                     |
| Maks. quvvat                               | 1700 Vt (yuvish) - 1250 Vt (quruq)             |                                     |
| Ruxsat etilgan suv bosimi                  | 50- 800 kPa (0.5 - 8.0 kgs / cm <sup>2</sup> ) |                                     |
| Energiya samaradorligi darajasi (EN 50229) | <b>B</b>                                       | <b>C</b>                            |

- Jihoz sifatini yaxshilash uchun ko'rinishi va texnik xususiyatlari avvaldan xabar berilmasdan turib o'zgartirilishi mumkin.
- Suv kiritish qirg'ishiga ulash uchun qarama-qarshi tomonga oqishdan himoya kerak emas.

O'lchamlari (Kengligi x Chuqurligi x Bo'yi)



Rusum: F\*\*\*V\*\*\*, F\*\*\*T\*\*\*

|   |     |    |     |     |      |
|---|-----|----|-----|-----|------|
| W | 600 | D  | 565 | D'' | 1100 |
| H | 850 | D' | 615 |     |      |

Rusum: F\*\*\*N\*\*\*, F\*\*\*W\*\*\*, F\*\*\*H\*\*\*

|   |     |    |     |     |     |
|---|-----|----|-----|-----|-----|
| W | 600 | D  | 455 | D'' | 975 |
| H | 850 | D' | 495 |     |     |




## O'rnatiladigan joyga qo'yiladigan talablar

Jihozni o'rnatishdan avval jihozning to'g'ri joyga o'rnatilganligiga ishonch hosil qilish uchun quyidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqing.

### O'rnatish joyi

- Jihozni tekis, qattiq pol ustiga o'rnatish. (Jihozda ruxsat beriladigan qiyalik: 1°)
- Polning notekisligini to'g'rilash uchun jihoz tagiga yog'och, karton yoki shunga o'xshagan narsalar qo'ymang.
- Jihozni gaz plitasi yoki ko'mirli pechdan uzoqroqqa o'rnatish imkonini bo'lmasa, plita yoki pech tomonga alyumin folga bilan o'ralgan izolyatsiya (850 X 600 mm) qo'yilishi kerak.
- Jihozni o'rnatayotganda, buzilib qolgan holatda mutaxassisga tuzatish oson bo'lishi kerakligini hisobga oling.
- Jihozni o'rnatgandan so'ng barqaror turishi uchun tashish boltining klyuchi yordamida to'rtta oyoqchasini rostlang. Jihoz usti bilan taglik pastki tomoni orasida kamida **5 mm** oraliq joy qoldirilishi lozim.
- Devorgacha bo'lgan qo'shimcha oraliq orqa tomon uchun minimum 100 mm va chap hamda o'ng tomonlar uchun 20 mm bo'lishni talab qiladi.



|   |        |
|---|--------|
| A | 100 mm |
| B | 5 mm   |
| C | 20 mm  |

## ! OGOHLANTIRISH

- Bu jihozdan faqat uy sharoitida foydalanish lozim, ko'chma sharoitda foydalanish mumkin emas.


### IZOH

- Agar jihoz tepaga ko'tarilgan platformaga o'rnatilsa, tushib ketmasligi uchun mahkam qotirilishi kerak.

### Yog'och pol (o'rnatma pol)

Jihozni yog'ochdan qilingan pollar ustiga o'rnatganda jihozning ortiqcha tebrabishi va muvozanatsiz holatda bo'lishining oldini olish uchun rezina halqalardan foydalaning.

- Tebranishning oldini olish uchun kamida 15 mm qalinlikdagi rezina halqalarni **1** jihozning har bir oyog'iga qo'yib, kamida ikkita pol to'siniga burama mix bilan qotiring.



- Iloji bo'lsa jihozni xona burchagiga o'rnatib, u yerda pol baquvvat bo'ladi.
- Tebranishni kamaytirish uchun rezina halqalarni kiydiring.

## IZOH

- Rezina halqalarni (Qism raq. 4620ER4002B) LG Electronics xizmat ko'rsatish markazidan sotib olishingiz mumkin.

## Tebranish

- Jihoz atrofidagi havo aylanishini gilam, palos va hokazolar to'sib qo'ymaganligiga ishonch hosil qiling.

## Atrof-muhit harorati

- Jihozni harorat muzlashgacha boradigan xonalarga o'rnatmang. Muzlagan shlanglar bosim ostida yorilib ketishi mumkin. Muzlash nuqtasidan past haroratda elektron boshqaruv bloki noto'g'ri ishlashi mumkin.
- Agar jihoz qishda yetkazib berilsa va harorat muzlash nuqtasidan past bo'lsa, jihozni ishlatishdan oldin xona haroratida bir necha soat saqlang.

## Elektr tarmog'iga ulash

- Uzaytirgich shnuri yoki troynik ishlatmang.
- Jihozni ishlatib bo'lgandan so'ng doim elektr tarmog'idan uzib qo'ying va suv jo'mragini yoping.
- Jihozni amaldagi ulash qoidalariga muvofiq ravishda yerga ulangan rozetkaga ulang.
- Jihozni shunday joylashtiringki, vilkaga yetish oson bo'lsin.
- Jihozni ta'mirlash faqat malakali texnik tomonidan amalga oshirilishi kerak. Tajribasiz shaxslar ta'mirlash bilan shug'ullanishi oqibatida jarohat yetishi yoki jiddiy nosozlik bo'lishi mumkin. LG Electronics xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.

- Elektr rozetkasi jihoz joylashgan yerdan ko'pi bilan 1 metr uzoqlikda bo'lishi zarur.

## ⚠ OGOHLANTIRISH

- Elektr shnuri vilkasi barcha mahalliy qonun-qoidalariga muvofiq tarzda o'rnatilgan va yerga ulangan rozetkaga ulanishi shart.

## IZOH


- Bir nechta qurilmani bitta rozetkaga ulamang.

## Jihozni qadog'idan chiqarib olish

### Jihozni penoplast asosdan ko'tarish


\* Xarid qilingan modelga bog'liq ravishda bu xususiyat farq qilishi mumkin.

- 1 Karton hamda tashish materialini olib tashlagandan so'ng uni penoplast asosdan ajratib oling. Baraban tayanchi ①\* karton taglik bilan birga ajratilishiga ishonch hosil qiling, jihozning tagiga ilinib qolmasin.
- 2 Agar karton taglikni ② olib tashlash uchun jihozni yotqizish kerak bo'lsa, yon tomonini himoyalab, ehtiyotkorlik bilan yotqizing. Jihozni oldi yoki orqa tomoniga yotqizmang.




## Boltlarni bo'shatib chiqarish

- 1 Quyidagi ikkita tashish boltlaridan **1** boshlagan holda ularni soat miliga qarama-qarshi yo'lanishda burash orqali barcha tashish boltlarini to'liq bo'shatib chiqarish uchun gayka klyuchidan (birga beriladi) foydalaning.



- 2 Ularni tashqariga tortib chiqarish vaqtida qimirlatish orqali boltlarni chiqarib oling.
- 3 Teshik tiqinlarini o'rnatgich.
  - Anjomlar to'plamida yoki orqa tomonga **2** mahkamlangan teshik tiqinlarini toping.



## IZOH

- Agar siz tashish va qotirish boltlarini olib tashlamasangiz, kuchli tebranish va shovqin paydo bo'lishi mumkin, bu kir yuvish mashinasiga doimiy shikast yetkazadi. Tashish boltlarini yechgunga qadar mashina ishga tushirilmasligi uchun shnur kir yuvish mashinasining orqa tomoniga tashish bolti yordamida mahkamlangan.

## Jihozni tekis joylashtirish


### Tekisligini tekshirish

Kir yuvish mashinasining qirralari tepadan diagonal bo'ylab bosganda, jihoz umuman pastga-tepaga qimirlamasligi kerak (har ikkala yo'nalishni tekshiring). Agar jihozning tepa qismini diagonaliga bosishda jihoz chayqalsa, oyoqchalarni yana rostlang.


### Oyoqchalarni sozlash va tekislash

Jihozni o'rnatganda jihoz tekislanishi va juda tekis joylashishi kerak. Agar tekislanmagan va mos darajada tekis bo'lmasa, jihoz shikastlanishi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin.


- 1 Agar pol notekis bo'lsa, sozlash oyoqchalarini keragicha sozlang.
  - Oyoqchalar tagiga yog'och bolaklari kabi narsalarni qo'ymang.
  - Barcha oyoqchalarning barqaror va polga tegib turganligiga ishonch hosil qiling.



- 2 Shayton jihozi yordamida jihozning tekis ekanligini tekshiring **1**.



- 3** Sozlash oyoqchalarini jihozning tag qismiga qarshi soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalishda burash orqali kontrgayka **2** bilan mahkamlang.



- 4** Jihozning tag qismidagi barcha kontrgaykalarining mos tarzda mahkamlanganligini tekshiring.

## IZOH

- Jihoz to'g'ri joylashtirilsa va tekis tursa, uzoq vaqt davomida, muntazam va ishonchli ishlashi ta'minlanadi.
- Jihoz 100% gorizontaal bo'lishi va joyida barqaror turishi lozim.
- Yuklanganida chayqalishi kerak emas.
- Jihozning oyoqlari ho'l bo'lmasin. Aks holda tebranish yoki shovqin hosil bo'lishi mumkin.

## Siljib ketishga qarshi tagliklardan foydalanish


Bu xususiyat sotib olingan modelga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

Agar jihozni silliq yuzaga o'rnatasangiz, tebranish tufayli joyidan siljishi mumkin. Tekis o'rnatilmagan bo'lsa, shovqin va tebranish tufayli noto'g'ri ishlashi mumkin. Bu holda sozlanadigan oyoqlari ostiga siljib ketishga qarshi tagliklarni qo'ying, keyin oyoqchalarni rostlang.

- 1** Siljib ketishga qarshi tagliklarni o'rnatish uchun polni tozalang.
  - Yot jismlar va namlikni olib tashlash va tozalash uchun quruq mato ishlatilgan. Namlik qolib ketsa, tagliklar siljib ketishi mumkin.
- 2** Jihozni o'rnatiladigan joyga joylashtirgandan so'ng tekis turishini ta'minlang.

- 3** Siljib ketishga qarshi tagliklarning yopishqoq tomonini **1** polga qaratib soling.

- Old oyoqchalarning tagiga sirpanishga qarshi to'shamalar solish eng samarali usuldir. Agar old oyoqchalar tagiga taglik qo'yish qiyin bo'lsa, ularni orqa oyoqcha tagiga qo'ying.



- 4** Jihozni siljib ketishga qarshi tagliklar ustiga qo'ying.

- Sirpanishga qarshi to'shamalarning yopishqoq tomonini **1** jihozning oyoqchalariga yopishtirmang.

## IZOH

- Qo'shimcha sirpanishga qarshi to'shamalarni LG Electronics Servis markazidan olish mumkin.
- Qo'lbola astar, gilam va shu kabilarni ishlatmang.



## Suv kirish shlangini ulash

### Ulash bo'yicha eslatma

- Suv bosimi **50 kPa** bilan **800 kPa** (0.5 - 8.0 kgs/sm<sup>2</sup>) orasida bo'lishi kerak. Agar suv bosimi **800 kPa** dan ortiq bo'lsa, bosimni kamaytiradigan qurilma o'rnatilishi kerak.
- Suv kiritishni barcha klapanlarda ortiqcha qotirib yubormang.
- Shlang holatini muntazam ravishda tekshiring va zarur bo'lganda almashtiring.

## Suv kelish shlangidagi rezina qistirmani tekshirish


Suv kelish shlanglari bilan ikkita rezina qistirma ❶ beriladi. Ular suv sizib chiqmasligi uchun ishlatiladi. Jo'mrakka ulangan joyi yetarlicha zichligiga ishonch hosil qiling.



## Shlangni suv jo'mragiga ulash

### Burama mixli shlangni rezbali jo'mrakka ulash

Shlang ulagichini  $\frac{3}{4}$ " o'lchamli rezbali ulanishga ega bo'lgan suv ta'minotiga ulang.



## IZOH


- Suv kirish shlangini jo'mrakka ulashdan oldin uni ochib yuboring, yot jismlar (chang, qum, qirindi va hok.) chiqib ketsin. Suvni chelakka oqizing va suv haroratini tekshiring.
- Mashinani suv bilan to'ldirishda shovqin bo'lsa, suv bosimini pasaytirish uchun kranni biroz yoping.

## Suv jo'mragiga ulash bo'yicha tavsiyalar

Odatiy kran



Uzaytirilgan kran




Odatiy bo'lmagan kran



## Shlangni jihozga ulash

Suv liniyasini jihozning orqa tarafidagi suv ta'minoti portiga ulang.



### IZOH



- Ulab bo'lgach, agar shlangdan suv sizib chiqsa, shu bosqichlarni takrorlang. Suv ta'minoti uchun eng oddiy jo'mrakdan foydalaning. Jo'mrak to'rtburchak yoki o'ta katta bo'lgan hollarda uni adapterga tiqishdan oldin yo'naltiruvchi plastinani olib tashlang.
- Shlangning bukilib yoki qisilib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.

## Drenaj shlangini o'rnatish


### Oqava suv nasosili model uchun

Drenaj (suv chiqarish) shlangi poldan **100 santimetrdan** balandda bo'lmashligi kerak. Jihoz ichidagi suv chiqib ketmasligi yoki sekin chiqishi mumkin.

- Drenaj shlangi mahkam qotirilsa, suv sizib chiqishi tufayli polga shikast yetishining oldi olinadi.



- Shlang kir yuvish mashinasining orqa tomoniga qotirilgan. Tutqichni burash va shlangni ajratish mumkin emas. Bu kir yuvish mashinasining ishlashi paytida suvning o'z-o'zidan oqishiga olib kelishi mumkin.
- Agar drenaj shlangi o'ta uzun bo'lsa, uni majburlab jihozga itarib o'rnatmang. Bu noodatiy shovqin keltirib chiqaradi.
- Drenaj shlangini rakovinaga o'rnatmangiz, chilvir bilan bog'lab qo'ying.



## Ishlatishning qisqacha bayoni

### Jihozdan foydalanish

Ilk bora yuvishdan oldin **Хлопок (Paxta)** yuvish dasturini tanlang va kir yuvish vositasi miqdorining yarmini soling. Yuvish mashinasiga kirlarni solmasdan yuvishni boshlang. Bu ishlab chiqarishda qolib ketgan qoldiqlar va suvni barabandan chiqarib yuboradi.

- 1 Kirlarni saralang va yuklang.
  - Kirlarni mato turi, kirlanish darajasi, rangi va yuklanish hajmiga ko'ra saralang. Eshigini ochib, kirlarni jihozga soling.
- 2 Kir yuvish kukuni yoki yumshatgich soling.
  - Kir yuvish vositasini tarqatish tortmasiga kerakli miqdorda qo'shing. Kerak bo'lsa, tortma tegishli bo'lmasiga oqartirgich yoki mato yumshatgichini soling.
- 3 Jihozni yoqing.
  - Jihozni yoqish uchun **Питание** tugmasini bosing.
- 4 Kerakli siklni tanlang.
  - Sikl tugmasini takror bosing yoki siklni tanlash murvatini burab, kerakli siklni tanlang.
  - Endi yuvish harorati va aylanish tezligini tanlang. Kiyimlaringizning yuvish haqidagi yorliqlariga e'tibor bering.
- 5 Siklni ishga tushiring.
  - Siklni ishga tushirish uchun **Пуск/Пауза** tugmasini bosing. Mashina suvsiz ozgina ishlab, kirlarning vaznini o'lchaydi. Agar **15 daqiqa** ichida **Пуск/Пауза** tugmasi bosilmasa, jihoz o'chadi va sozlanmalar saqlanmaydi.

### 6 Sikl tugashi.

- Sikl tugallangach, kuy yangraydi. G'ijimlanmasligi uchun kiyimlarni darhol jihoz ichidan oling. Eshik zichlagichiga ilinib qolishi mumkin bo'lgan mayda buyumlarni tekshirib chiqing.

## Kirlarni yuvishga tayyorlash

Eng yaxshi kir yuvish natijalariga erishish uchun kirlarni turlarga ajratish va keyin kirlarni qarov yorliqlaridagi belgilarga ko'ra tayyorlang.

### Kirlarni turlarga ajratish

- Eng yaxshi yuvish natijalariga erishish uchun kirlaringizni qarov yorlig'idagi belgi bo'yicha mato turi va yuvish haroratiga ko'ra turlarga ajratish va ularni moslashtirilgan aylanish tezligi bilan yuving.
- To'q ranglarni doim och ranglar va oqlardan alohida saralang. Alohida yuving, chunki bo'yoq va tuklar aralashishi tufayli oq va och rangli matolarning rangi o'chishi mumkin. Iloji bo'lsa, kuchli kirlanganlarni yengil kirlanganlar bilan birga yuvmang.

### IZOH

- Kirlanish darajasi (Og'ir, Normal, Yengil): Kirlarni kirlanish darajasiga ko'ra ajratish. Normal va og'ir darajada kirlangan kirlarni yuvganda **Интенсивная (Intensiv)** opsiyasi samarali hisoblanadi.
- Rang (Oq, Och ranglar, To'q ranglar): Oq matolarni rangli matolardan ajratish. Yangi qora va rangli kiyimlarni avval ajratish.
- Tuk (tuk chiqaruvchi, tuk yig'uvchilar): Tuk chiqaruvchi va tuk yig'uvchilarni alohida yuving.

## Kiyimlardagi yuvishga oid yorliqlarni tekshirish

### Yorliqlardagi belgilar

Belgilarda mato tarkibidagi tola va uni qanday yuvish haqida ma'lumot beriladi.


| Belgi | Yuvish / Mato turi                                                                                    |
|-------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|       | <ul style="list-style-type: none"> <li>Normal yuvish</li> <li>Paxta, aralash matolar</li> </ul>       |
|       | <ul style="list-style-type: none"> <li>Yengil parvarish</li> <li>Sintetik, aralash matolar</li> </ul> |
|       | <ul style="list-style-type: none"> <li>Maxsus nozik yuvish</li> <li>Nozik matolar</li> </ul>          |
|       | <ul style="list-style-type: none"> <li>Faqat qo'lda yuvish</li> <li>Jun, shoyi matolar</li> </ul>     |
|       | <ul style="list-style-type: none"> <li>Yuvilmasin</li> </ul>                                          |

### IZOH

- Belgi ostidagi uzun chiziqlar mato turi va berish mumkin bo'lgan maksimal mexanik siqish haqidagi ma'lumotlarni beradi.

## Solishdan avval kiyimlarni tekshirish


- Yuklashda katta va kichkina narsalarni aralashtiring. Avval kattalarini soling.
- Katta narsalar jami kir yuklarni yarmidan oshmasligi kerak. Kirlarni bittalab yuvming. Bunda yuklam muvozanati yo'qolishi mumkin. Bir yoki ikkita o'xshash kirlarni qo'shing.
- Barcha cho'ntaklarni tekshirib ko'ring, ular bo'sh ekanligiga ishonch hosil qiling. Ignalar, soch qisqichlari, gugurt, ruchka, tanga va kalitlar jihoz hamda kiyimlarni shikastlashi mumkin.




- Nozik matolarni (paypoqlar, ko'krakbandlar) yuvish to'rida yuving.
- Sirtma, ilgak va bog'icmlarni yoping, boshqa kiyimlarga ilinib qolmasin.
- Ozgina miqdordagi yuvish vositasini suvga eritib, kir va dog'lar tezda ketishi uchun ustiga surtib chiqing.
- Egiluvchan (kulrang) zichlagich oralarini tekshiring, mayda narsalar qolib ketgan bo'lsa, olib tashlang.

### DIQQAT

- Kirlarning eshik bilan eshik zichlagichi o'rtasiga tiqilib qolmaganligini tekshiring, aks holda yuvish vaqtida kirlar zararlanishi mumkin.



- Kirlar va eshik zichlagichining zararlanishining oldini olish uchun buyumlarni moslashuvchan prokladkadan chiqarib oling.





# Kir yuvish vositalari va yumshatgichlar qo'shish

## Vosita miqdori


- Vositani ishlab chiqaruvchi yo'riqnomasiga qarab ishlatish hamda matoning turi, rangi, kirlanish darajasi va yuvish haroratiga qarab tanlash lozim.
- Agar kuchli ko'piklanish yuz bersa, yuvish vositasi miqdorini kamaytiring.
- Agar yuvish vositasi o'ta ko'p ishlatilsa, kuchli ko'piklanib ketib, kir yaxshi yuvilmasligiga yoki motor zo'riqishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar suyuq vosita ishlatmoqchi bo'lsangiz, ishlab chiqaruvchining yo'l-yo'riqlariga amal qiling.
- Agar yuvish siklini darhol ishga tushirayotgan bo'lsangiz, suyuq vositani to'g'ridan-to'g'ri asosiy vosita tortmasiga quyishingiz mumkin.
- Agar **Таймер (Yuvishni kechiktirish)** funksiyasini ishlatayotgan bo'lsangiz yoki **Предв. стирка (Dastlabki yuvish)** opsiyasini tanlagan bo'lsangiz, suyuq vositadan foydalanmang, chunki u qotib qolishi mumkin.
- Suv harorati, suvning qattiqligi, kirlarning hajmi va kirlanish darajasiga qarab yuvish vositasining miqdorini rostdlash kerak bo'ladi. Eng yaxshi natijaga erishish uchun kuchli ko'piklanishning oldini oling.
- Yuvish vositasi va suv haroratini tanlashdan oldin kiyimlardagi yorliqlarni ko'ring.
- Faqat kiyimlarning tegishli turiga mos keluvchi kir yuvish kukunlaridan foydalaning:
  - Suyuq kir yuvish vositasi ko'pincha maxsus qo'llashlar uchun, masalan, rangli matolar, jundan qilingan matolar, nozik yoki qora kirlarni yuvish uchun mo'ljallanadi.
  - Kukunli kir yuvish vositasi barcha turdagi matolar uchun mos keladi.
  - Oq va och rangli kiyimlarni yuvishda yaxshiroq natijalar olish uchun oqartirgichli kukunli kir yuvish vositasidan foydalaning.
  - Yuvish vositasi yuvish sikli boshida kir yuvish vositalari tortmasi bo'lmalardan yuvib tushiriladi.

## IZOH

- Vosita qotib qolishiga yo'l qo'ymang. Buning oqibatida to'silib qolishlar, chayish samarasi pasayishi yoki noxush hid paydo bo'lishi mumkin.
- To'liq yuklanish : Ishlab chiqaruvchining tavsiyasiga binoan.
- Qisman yuklanish : Oddiy miqdorning  $\frac{3}{4}$  qismi
- Minimal yuklanish : To'liq yuklanishning  $\frac{1}{2}$  qismi

## Yuvish vositasini qo'shish

- Faqat asosiy yuvish ❶ uchun kir yuvish vositasi ❶ → 
- Dastlabki yuvish ❷ va asosiy yuvish ❷ uchun kir yuvish vositasi ❶ →  • 




## IZOH

- Mos miqdordagi kir yuvish vositasidan foydalaning. Yuvish vositasi, oqartirgich yoki yumshatgich ko'p ishlatib yuborilsa, toshib ketishi mumkin.
- **Предв. стирка (Dastlabki yuvish)** dasturini tanlaganda yuvish vositasi miqdorini dastlabki yuvish uchun  $\frac{1}{3}$  va asosiy uchun  $\frac{2}{3}$  qismlarga ajrating.

## Kir yuvish tabletkalarini qo'shish

Kirlarni yuvganda kir yuvish tabletkalaridan ham foydalanish mumkin.

- 1 Eshigini ochib, barabanga kir yuvish tabletkasi soling.



- 2 Kirlarni barabanga yuklab, eshigini yoping.

### IZOH

- Tabletkalarni tortmaga solmang.

- Mato yumshatgichini vosita tortmasida 2 kundan ortiq muddatga qoldirmang (mato yumshatgichi qotib qolishi mumkin).
- Yumshatgich so'nggi chayish sikli paytida avtomatik ravishda qo'shiladi.
- Suv to'ldirilayotgan vaqtda tortmani ochmang.
- Eritgich (mas., benzol va hokazo) ishlatilmasin.

### IZOH

- Mato yumshatgichini bevosita kiyimlar ustiga quymang, chunki bu kiyimlarda dog'lar qoldiradi.


## Suv yumshatgichini qo'shish

Qasmoqqa qarshi vosita kabi suv yumshatgichidan suvning qattqlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kir yuvish vositasidan foydalanishni qisqartirish uchun foydalaniladi.

- Avval kir yuvish vositasini va keyin suv yumshatgichni qo'shing. Qadog'ida ko'rsatilgan miqdorga ko'ra aralashtiring.

## Mato yumshatgichini qo'shish



- Maksimal miqdor ko'rsatkich chizig'idan oshirib yubormang. Oshirib yuborilsa, mato yumshatgichi vaqtidan oldinroq tarqatilib, kiyimlarga dog' tushirishi mumkin. Kir yuvish vositalari tortmasini sekin yoping.



## Boshqaruv paneli

- Boshqaruv panelining tashqi ko'rinishi rasmda ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin.

Bug' bilan ishlaydigan rusumlar uchun:



Bug' bilan ishlaydigan rusumlar uchun:



Quritish funksiyasi mavjud bo'lgan rusumlar uchun:



## Boshqarish paneli elementlari

### 1 Питание tugmasi

- Jihozni yoqish yoki o'chirish uchun **Питание** tugmasini bosong.

### 2 Dasturni tanlash murvati

- Dasturlarni kirlar turiga qarab tanlash mumkin.
- Tanlangan dasturni ko'rsatish uchun chiroq yonadi.

### 3 Пуск/Пауза tugmasi

- Bu **Пуск/Пауза** tugmasi yuvish siklini boshlash yoki to'xtatib turish uchun ishlatiladi.
- Agar yuvish siklini vaqtinchalik to'xtatish kerak bo'lsa, **Пуск/Пауза** tugmasini bosong.

### 4 Qo'shimcha opsiyalar va funksiyalar

- Yaxshiroq kir yuvish natijalariga erishish uchun qo'shimcha opsiyalar va funksiyalar mavjud. Bir nechta opsiyalar va funksiyalarni sozlash mumkin.
- Tanlangan dasturni ko'rsatish uchun chiroq yonadi.
- Qo'shimcha funksiyalardan foydalanish uchun tegishli tugmani 3 soniya bosib turing. Displayda tegishli belgi yonadi.
- **Удаленный старт** (Masofadan ishga tushirish) funksiyasini ishlatish uchun **AQLLI FUNKSIYALAR** bo'limiga qarang.
- Bu qo'shimcha dasturlarni tanlash imkonini bradi va tanlanganda tegishli chiroq yonadi.
  -  : Ushbu belgi bug'ni yuvish davridan keyin aylanish rejimi tanlanganida ko'rsatiladi.
  -  : bu belgi qo'shimcha bir durulama tanlangan ko'rsatilgan.
  -  : bu belgi kir yuvish jadalligi tanlanganligini bildiradi.
  -  : jihoz WLAN tarmog'iga ulanganda shu ikonka yonadi.

### 5 Ekran

- Displayda sozlanmalar, taxminiy qolgan vaqt, parametrlar va holat xabarlari ko'rsatiladi. Jihoz nechta opsiyalar va funksiyalarni sozlash mumkin.
  - **18:00** : Dastur tanlanganida dastur uchun sukut bo'yicha vaqt ko'rsatiladi. Sukut bo'yicha vaqtni tanlangan opsiyaga ko'ra o'zgartirish mumkin.
  -  : kirlar yuvilayotganida shu ikonka yonadi.
  -  : kir yuvish dasturidan keyin kirlar chayilayotganida shu ikonka yonadi.
  -  : kirlardagi suvni ketkazish uchun kirlar siqilayotganida shu ikonka yonadi.
  -  : shu ikonka yonganida eshikni ochib bo'lmaydi.
- Ovozli signalni yoqish / o'chirish uchun bir vaqtning o'zida "Звуковой сигнал вкл/выкл" tugmalarini bosib ushlab turing.

### 6 AI DD

- **AI DD**  ko'ngildagidek yuvish va siqishni ta'minlaydi.
- **Хлопок (Пахта)**, **Смешанная (Aralash mato)** va **Повседневная (Yengil parvarish)** dasturlari tanlanganda  faollashtiriladi va ushbu tanlangan dasturlar amalda bo'lganda ishlatiladi.
- Ushbu parametr barcha yuvish dasturlarida mavjud emas.

# Dasturlar jadvali

## Yuvish dasturi (rusumga qarab mavjud)

| Dastur                                               | Хлопок (Paxta)                                                                                                                                                                                                                       |                 |          |
|------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|----------|
- 4 **Пуск/Пауза** tugmasini bosib.

### ИЗОН

-  rejimini tanlasangiz, baraban suvni chiqarib tashlash uchun qisqa vaqt aylanishda davom etadi.
- **TurboWash 59** dasturi uchun **Без отжима (Siqish yo'q)**  parametri tanlamaydi.

## Сушка (Quritish)

Quritish vaqtini belgilash uchun, Quritish tugmasini kerakli vaqt tanlangunga qadar bosib.

- Sovuq suv ta'minoti jo'mragi yoqilishi lozim.
- Agar siz quritish jarayonida mashinani o'chirsangiz, quritish motori biroz vaqt ishlab turadi. Ekranda  $\mathcal{F}$  . belgilari aks etadi. Sovutish tugagandan so'ng, mashina ishlash jarayoni tugaydi.
- Quritishning so'nggi 6 daqiqasi davomida sensor kirlarni quritish shartlarini aniqlaydi. Agar quritish darajasi yetarli bo'lmasa, ishlov berish sikli 10 daqiqaga ko'payadi va displayda "6" daqiqa ko'rsatiladi.
- Quritish jarayoni tugagandan so'ng, kirlarni 4 soatgacha sovutish jarayoni boshlanadi. Ekranda  $\mathcal{D}$  belgilar paydo bo'ladi, majburiy ravishda dasturni tugatish uchun **Пуск/Паза "Ishga tushirish/To'xtatish"**

## Звуковой сигнал вкл/выкл (Ovozli signalni yoqish/o'chirish)

Bu funksiya faqat jihoz ishlayotganda ishlaydi.

- Bu funksiyani o'rnatish uchun **Полоскание+ (Chayish+)** va **Предв. стирка (Dastlabki yuvish)** tugmalarini bir vaqtda 3 soniya davomida bosib turing.

## ИЗОН

- Bu funksiya sozlangandan so'ng ushbu sozlanma hatto quvvat o'chirilgandan so'ng ham xotirada qoldiriladi.
- Ovozli signalni o'chirib qo'yimoqchi bo'lsangiz, shu yuqoridagi harakatlarni takrorlang.

## Блокировка от детей (Bolalardan himoyalash)

Bu funksiya yordamida tugmalar ishlaymay qoladi. Shunda bolalar sikllarni o'zgartirishi yoki jihozni ishlatishining oldi olinadi.

### Бoshqaruv panelini cheklash

- 1 Таймер (Yuvishni kechiktirish) va Добавить белье (Kir qo'shish)** tugmalarni 3 soniya bosib turing.
- 2 Ovozli signal eshutiladi va ekranda  $\mathcal{L}$  ko'rsatiladi. Блокировка от детей (Bolalardan himoyalash) o'rnatilganida Питание** tugmasidan boshqa barcha tugmalar qulfanadi.

## ИЗОН

- O'chirib qo'yilsa ham bu funksiya o'zgarmaydi. Boshqa funksiyalarga kirish uchun bu funksiyani o'chirishingiz kerak.
- Bolalardan himoyalash tugmachasini 3 soniya bosib turing.

### Бoshqaruv panelini cheklashni bekor qilish

**Таймер (Yuvishni kechiktirish) va Добавить белье (Kir qo'shish)** tugmalarni 3 soniya bosib turing.

## LG ThinQ ilovasi

LG ThinQ ilovasi smartfondan foydalanib jihoz bilan aloqada bo'lishga imkon beradi.

### LG ThinQ ilovasi xususiyatlari

Qulay aqlli funksiyalar yordamida smartfon orqali jihozga ulaning.

#### Цикл стирки (Yuvish sikli)

(Удаленный старт (Masofadan ishga tushirish),  
Моя программа (Siklni yuklab olish))

Kerakli siklni tanlang yoki yuklab oling va uni masofadan turib boshqaring.

#### Barabanni tozalash bo'yicha tavsiyalar

Bu funksiya **Очистка барабана (Barabanni tozalash)** funksiyasini ishlatishgacha nechta sikl qolganini ko'rsatadi.

#### Energiya iste'moli nazorati

Bu funksiya oxirgi ishlatilgan sikllardagi va bir oy ichidagi o'rtacha energiya sarfini tekshirish imkonini beradi.

#### Smart Diagnosis

Bu funksiya foydalanish tartibiga ko'ra jihozga tashxis qo'yish va muammolarini hal qilishga oid foydali ma'lumotlarni olishda yordam beradi.

#### Sozlamalar

Jihozda va ilovada turli parametrlarni qo'yish imkonini beradi.

#### Majburiy bildirishnomalar

Sikl yakunlanganida yoki jihozda muammolar yuz berganida smartfoonda push bildirishnomalarini olish imkoniyati mavjud. Bildirishnomalar hattoki LG ThinQ ilovasi o'chiq bo'lsa ham ishga tushiriladi.


### IZOH

- Agar siz simsiz routingiz, Internet provayderingiz yoki parolingizni o'zgartirsangiz, ro'yxatga olingan qurilmani LG ThinQ ilovasidan qo'chiring va qaytadan ro'yxatdan o'tkazing.


- Mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida foydalanuvchiga oldindan ogohlantirishsiz ilovaga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- Rusumga bog'liq ravishda xususiyatlar o'zgarishi mumkin.

### LG ThinQ ilovasidan foydalanishdan avval

- 1 Jihoz va simsiz router (Wi-Fi tarmoq) orasidagi masofani tekshiring.
  - Agar jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo'lsa, signal kuchi pasayadi. Ulanish uzoq vaqtni talab qilishi yoki o'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin.
- 2 Smartfoningizdagi Mobil internetni o'chiring.



- 3 Smartfoningizni simsiz routerga ulang.



### IZOH

- Wi-Fi ulanishini tekshirish uchun boshqaruv panelida f belgisi yoqilganligini ko'ring.
- Bu jihoz faqat 2.4 GGs chastotali Wi-Fi tarmoqlarda ishlaydi. Tarmoq chastotasini tekshirish uchun internet-provayderingizga murojaat qiling yoki simsiz router qo'llanmasiga qarang.



- **LG ThinQ** tarmoqqa ulanish muammolari yoki tarmoqda yuzaga kelgan har qanday nosozlik, noto'g'ri ishlash yoki xatolarni bartaraf qilish uchun mo'ljallanmagan.

## IZOH

- Agar jihozlar Wi-Fi tarmog'iga ulana olmasa, muammo jihoz rauterdan uzoqda joylashganligi sababli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Wi-Fi signalini kuchaytirish uchun Wi-Fi retranslyator (signal kuchaytirgich) sotib oling.
- Uydagi tarmoq muhitiga qarab Wi-Fi ulanishi o'rnatilmasligi yoki uzilib qolishi mumkin.
- Internet ta'minotchisiga qarab tarmoq ulanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin.
- Atrofdagi simsiz aloqa muhiti tufayli simsiz tarmoq xizmati sekin ishlashi mumkin.
- Simsiz signal uzatilishida muammo bo'lsa, jihoz tarmoqqa ulana olmaydi. Jihozni o'chiring va yana urinib ko'rishdan avval taxminan bir daqiqa kuting.
- Agar simsiz routeringizda himoya devori yoniq bo'lsa, himoya devorini o'chiring yoki uni istisnolar ro'yxatiga kiriting.
- Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo'lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlatmang)
- Smartfonning foydalanuvchi interfeysi (UI) mobil operatsion tizim (OS) va ishlab chiqaruvchiga qarab farq qilishi mumkin.
- Agar routerning xavfsizlik protokoli WEP qilib belgilangan bo'lsa, tarmoqni sozlay olmasligingiz mumkin. Uni boshqa xavfsizlik protokoliga o'zgartiring (WPA2 tavsiya etiladi.) va jihozni yana registratsiya qiling.

## LG ThinQ ilovasini o'rnatish

Smartfonda Google Play Store yoki Apple App Store do'konlaridan **LG ThinQ** ilovasini qidiring. Ilovani yuklab olish va o'rnatish ko'rsatmalariga amal toping.

## Jihozdan masofadan turib foydalanish

### Remote Start (Masofadan ishga tushirish)

Smartfon orqali jihozingizni masofadan boshqaring. Sikl ishlashini nazorat qilish ham mumkin, bunda sikl yakunlanguniga qadar qancha vaqt qolganligi haqida ma'lumot olasiz.

### Bu funksiyadan foydalanish

- 1 Kirlarni barabanga joylashtiring va kir yuvish vositasi taqsimlash tortmasiga kir yuvish vositasi soling.
  - Zarur bo'lgan hollarda taqsimlagichning mos joylariga oqartirish vositasi yoki mato yumshatgich soling.
- 2 Quvvat tugmasini bosing.
- 3 Masofadan boshqarish funksiyasini yoqish uchun **Удаленный старт (Masofadan ishga tushirish)** tugmasini 3 soniya bosib turing.
- 4 Kir yuvish mashinasini ishga tushirish uchun smartfondagi **LG ThinQ** ilovasida birorta siklni ishga tushiring.

## IZOH

- Bu funktsiya yoqilgach, smartfondagi **LG ThinQ** ilovasi yordamida faqat siklni ishga tushirish mumkin. Sikl ishga tushirilmasa, ilova yordamida sikl o'chirilmaguncha yoki bu funktsiya o'chirib qo'yilmaguncha ilova masofadan ishga tushirish buyrug'ini kutib turadi.
- Agar eshik ochiq bo'lsa, siklni masofadan ishga tushira olmasiz.

### Bu funktsiyani qo'lda o'chirib qo'yish

Bu funktsiya faollashtirilganda **Удаленный старт (Masofadan ishga tushirish)** tugmasini 3 soniya bosib turing.

## Моя программа (Siklni yuklab olish)

Jihozdagi sikllarda mavjud bo'lmagan yangi va maxsus sikllarni yuklab olishingiz mumkin.

Jihozni muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tkazgach, turli maxsus sikllarni yuklab olish mumkin.

Jihoz siklni yuklab olgach, boshqa sikl yuklab olinguncha, avvalgi yuklab olingan siklni saqlab qoladi.

## IZOH

- Jihozda bir vaqtning o'zida faqat bitta yuklab olingan siklni saqlab olish mumkin.

## Simsiz LAN modulining texnik xususiyatlar

Kir yuvish mashinasi LCW-004 moduli yoki LCW-007 moduli bilan ishlab chiqaruvchining ixtiyoriga ko'ra jihozlanishi mumkin.

|                         |                                                                                     |
|-------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| Rusum                   | LCW-004                                                                             |
| Chastotalar diapazoni   | 2412 to 2472 Mhz                                                                    |
| Chiqish quvvati (Maks.) | IEEE 802.11b: 17.82 dBm<br>IEEE 802.11g: 17.72 dBm<br>IEEE 802.11n(HT20): 16.61 dBm |

|                         |                                                                                                                      |
|-------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Rusum                   | LCW-007                                                                                                              |
| Chastotalar diapazoni   | 2412 to 2472 Mhz                                                                                                     |
| Chiqish quvvati (Maks.) | IEEE 802.11b: 17.59 dBm<br>IEEE 802.11g: 17.39 dBm<br>IEEE 802.11n(HT20): 16.64 dBm<br>IEEE 802.11n(HT40): 17.05 dBm |

Simsiz funksiya D/T versiyasi: V 1.0

Foydalanuvchiga xavfsiz bo'lishi uchun ushbu qurilma bilan inson o'rtasida kamida 20 sm oraliq qoldirilgan holda o'rnatilishi va ishlatilishi kerak.

## Ochiq kodli dasturiy ta'minot eslatmasi

GPL, LGPL, MPL va ushbu mahsulotda mavjud bo'lgan boshqa ochiq kod litsenziyalari ostida manba kodini olish uchun <http://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring.

Ochiq turdagi kodlarga qo'shimcha ravishda barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatlarning rad qilinishlari va mualliflik huquqlari to'g'risidagi bildirishnomalarni ham yuklab olish mumkin.

LG Electronics [opensource@lge.com](mailto:opensource@lge.com) manziliga so'rovnomaga yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CDROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi. Bu taklif mahsulotni yetkazib berilgandan so'ng uch yil ichida amal qiladi. Bu taklif ushbu ma'lumotni olgan har kim uchun amal qiladi.

## Smart Diagnosis (Aqlli tashxislash)

Bu xususiyatdan faqat  yoki  logotipiga ega bo'lgan modellarda foydalanish mumkin. Jihozingiz bilan muammolarni tashxislash va hal qilish uchun shu xususiyatdan foydalaning.

### IZOH

- LGE'ga xos bo'lmagan sabablar tufayli Wi-Fi ning mavjud emasligi, Wi-Fi ning uzilishi, mahalliy ilovalar do'konining siyosati yoki ilovaning mavjud emasligi kabi tashqi omillar tufayli xizmat ishlamasligi mumkin.
- Bu xususiyat avvaldan xabar berilmasdan turib o'zgartirilishi va qayerda joylashganligingizga bog'liq ravishda boshqacha bo'lishi mumkin.

## Muammolarni tashxislash uchun LG ThinQ ilovasidan foydalanish

Agar sizda Wi-Fi bilan jihozlangan qurilmangiz bilan bo'liq muammo bo'lsa, u nosozliklarni bartaraf qilish ma'lumotlarini **LG ThinQ** ilovasidan foydalanib smartfonga o'tkazishi mumkin.


- LG ThinQ ilovasini ishga tushiring va menyuda Smart Diagnosis xususiyatini tanlang. LG ThinQ ilovasida berilgan ko'rsatmalarni bajaring.

## Muammolarni tashxislash uchun Audible Diagnosis xususiyatidan foydaanish

Ovozli diagnostika usulidan foydalanish uchun quyidagi ko'rsatmalarni bajaring.

**LG ThinQ** ilovasini ishga tushiring va menyuda **Smart Diagnosis** xususiyatini tanlang. **LG ThinQ** ilovasida eshitisish orqali tashxislash uchun berilgan ko'rsatmalarni bajaring.

- 1 Jihozni yoqish uchun Quvvat tugmasini bosning.
  - Boshqa birorta ham tugmani bosmang.
- 2 Smartfoningiz mikrofonini  yoki  logotipiga yaqinroq joylashtiring.



- 3 Ma'lumotlar o'tkazish yakunlangunicha smartfoningiz mikrofonini logotipga ushlab turgan holda **Temnepartya** tugmasini 3 soniya yoki undan ko'proq vaqt bosib turing.
  - Ma'lumot uzatilguniga qadar smartfonni shunday tutib turing. Ma'lumot uzatuvchi yakunlanishiga qadar qolgan vaqt displeyda ko'rsatiladi.
- 4 Ma'lumotlarni o'tkazish yakunlangandan keyin tashxis ilovada ko'rsatiladi.

### IZOH

- Yaxshi natijaga erishish uchun ma'lumotni uzatish paytida smartfonni siljitmang.


## ! OGOHLANTIRISH

- Tok urmasligi uchun tozalashdan oldin jihozni tokdan uzing. Bu ogohlantirishga amal qilinmasa, jiddiy jarohat, yong'in, tok urishi yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Jihozni tozalash uchun hech qachon agressiv kimyoviy moddalar, abraziv tozalash moddalari yoki erituvchilarni ishlatmang. Ular jihoz yuzasiga shikast yetkazishi mumkin.

## Har bir yuvish siklidan keyin tozalash

### Yuvishdan so'nggi parvarish

- Yuvish sikli tugallangach, eshikni va eshik zichlagichini artib, namlikni yo'qoting.
- Barabanni quritish uchun eshigini biroz ochiq qoldiring.
- Namlikni ketkazish uchun jihozni quruq mato bilan artib quriting.



### Jihoz tashqi qismini tozalash

Jihozni to'g'ri qarash uning xizmat ko'rsatish muddatini uzaytiradi.

#### Eshik

Jihoz tashqi va ichki qismlarini avval nam mato bilan, so'ngra quruq yumshoq mato bilan artib tashlang.

#### Korpus

Har qanday sachragan suvni darhol artib oling. Nam mato bilan arting.

## ! OGOHLANTIRISH

- Hech qaysi panelni ajratish yoki jihozni qismlarga ajratishga urinmang. Jihozni ishlatish uchun boshqaruv paneliga o'tkir buyumlarni tekizmang.

### Jihoz ichki qismini tozalash

- Eshik tirqishi atrofi va oynasini artishda sochiq yoki yumshoq mato ishlatning.
- Sikl tugallanishi bilan doim jihozdan kirlarni chiqarib oling. Nam buyumlar jihoz ichida qolsa, g'ijimlanishi, rangi o'tishi yoki noxush hid hosil bo'lishi mumkin.

## Jihozni davriy ravishda tozalab turish

### Очистка барабана (Barabanni tozalash)

Bu dasturda jihoz ichini tozalash uchun foydalaniladi.

Bu dasturda suv sathi balandroq, aylanish tezligi yuqoriroq bo'ladi. Kir yuvish kukunlari qatlamlari va boshqa qoldiqlarni ketkazish uchun bu funksiyani oyiga bir marta (yoki zarur hollarda ko'proq) ishga tushiring.

- 1 Jihozdan har qanday kiyim yoki buyumlarni olib tashlab, eshigini yoping.
- 2 Kir yuvish vositalari tortmasini oching va asosiy yuvish bo'lmasiga qasmoq kukuniga qarshi vosita qo'shing.
  - Tabletkalarni barabanga soling.
- 3 Kir yuvish vositalari tortmasini sekin yoping.

- 4** Yoqing va keyin **Очистка барабана (Barabanni tozalash)** dasturini tanlang.
- Displayda **тс** ko'rinadi.
- 5** Boshlash uchun **Пуск/Пауза** tugmasini bosing.
- 6** Dastur tugallangach, eshik tirqishi, egiluvchan zichlagich va eshik shishasi qurishi uchun mashina eshigini ochiq qoldiring.


## ⚠️ DIQQAT

- Faqat uyda bolalar qarov ostida bo'lganlaridagina jihoz ichini quritish uchun eshikni ochiq qoldiring.


## Suv kirish filtrini tozalash

Suv kirish filtri jihozgauzatilayotgan suvda bo'lishi mumkin bo'lgan ohak cho'kindilari va mayda buyumlarni ushlab qoladi. Agar suv juda qattiq bo'lsa yoki unda ohak cho'kindilari bo'lsa, suv kirish filtri tiqilib qolishi mumkin.

- 1** Suv jo'mragini yopib, suv ta'minoti shlangini burab chiqaring.



- 2** Filtrni o'rtacha qattqlikdagi cho'tka bilan tozalang.



## IZOH


- Agar jihoz ma'lum vaqt davomida ishlatilmaydigan bo'lsa (masalan, bayram tufayli), ayniqsa, polda drenaj bo'lmasa, mashinaga ulangan jo'mrakni yopib qo'ying.
- Yuvish vositasi tortmasiga suv kirmasa, boshqaruv panelida 1Etasvirchasi ko'rsatiladi.

## Drenaj nasosi filtrini tozalash


Drenaj filtri kirdan chiqqan iplar va shu kabi narsalarni yig'adi. Jihozingiz bir maromda ishlashini ta'minlash uchun ushbu filtrni tez-tez tozalab turing.

Baraban nasosi filtrini tozalashdan avval suvning sovishini kuting. Favqulodda holatlarda eshikni oching yoki favqulodda bo'shatishni amalga oshiring.

- 1** Jihozni rozetkadan uzing.
- 2** Qopqoqni oching va shlangni tortib chiqaring.



- 3** Drenaj tiqinini **1** ni bo'shatib oling va keyin suvni chiqaring. Suvni chiqarish va mayda buyumlarni olib tashlash uchun drenaj nasosi filtri **2** ni sekin bo'shating.



**4** Drenaj filtri nasosini tozalab bo'lgach, uni chiqarib oling va drenaj tiqini qayta o'rninging.

**5** Qopqoqni yoping.


## ⚠️ DIQQAT

- Suvni chiqarib yuborishda ehtiyot bo'ling, qaynoq bo'lishi mumkin.
- Yuvish vositasi qoldiqlari yoki boshqa qoldiqlarni olib tashlash uchun barabanni tozalash dasturini oyiga bir marta (yoki zarur bo'lgan hollarda ko'proq) bajaring.

## Kir yuvish vositalari tortmasini tozalash

Kir yuvish vositalari tortmasida yuvish vositasi va mato yumshatgichi yig'ilib qolishi mumkin. Oyda bir yoki ikki marta tortmani va uning bo'lmalarini chiqaring hamda kir yuvish kukunlari yoki yumshatgichlar qoldiqlarining yig'ilib qolmaganligini tekshiring.

- 1** Kir yuvish vositalari tortmasini tortma to'xtagunicha o'zingizga tomon tortib chiqaring.
- Bo'shatish tugmasini bosgan holda tortmani chiqarib oling.



- 2** Kir yuvish vositasi yoki yumshatgich qoldiqlari qatlamini olib tashlang.

- Tortma va tortma bo'lmalarini iliq suvda chayib, to'planib qolgan yuvish vositalari va yumshatgich qoldiqlari qatlamini tozalab tashlang. Yuvish vositalari tortmasini tozalash uchun faqat suvdan foydalaning. Tortma va tortma bo'lmalarini yumshoq mato yoki sochiq bilan quriting.

- 3** Tortma tirqishini tozalash uchun mato yoki metall bo'lmagan kichkina cho'tkadan foydalaning.

- Tepa va quyi qismlarida qolib ketgan qoldiqlardan tozalang.

**4** Barcha nam yuzalarni yumshoq mato yoki sochiq bilan artib tashlang.


**5** Qo'shimcha qism va bo'lmalarni o'rninging va tortmani joyiga o'rninging.

## Qishda muzlashdan saqlash


- Jihoz muzlab qolsa, odatdagiday ishlamaydi. Jihozni qishda muzlab qolmaydigan joyga o'rninging.
- Quyidagilarni tekshirishga ishonch hosil qiling.

## Jihozni muzlashdan himoyalash

- Yuvib bo'lgandan so'ng qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini ochish orqali nasos ichida qolgan suvni butunlay chiqarib tashlang. Suv butunlay chiqib ketgach, drenaj tiqinini va qopqoqni yoping.




- Shlangdagi suv butunlay chiqib ketishi uchun drenaj shlangini pastga ositirib qo'ying.



## ⚠️ DIQQAT

- Drenaj shlangi egri shaklda o'rnatilgan bo'lsa, ichki shlangi muzlab qolishi mumkin.
- Jo'mrakni yopgandan so'ng suv kirish shlangini jo'mrakdan ajratib va shlangni pastga qaratgan holda suvni chiqarib tashlang.




## Muzlab qolganlikni tekshirish

- Qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini ochgandan so'ng suv chiqib ketmasa, drenaj tizimini tekshirib ko'ring.




## Muzlaganda nima qilish kerak

- Barabanni bo'shating, keyin rezina qismigacha 50–60 °C issiqlikdagi suv bilan to'ldiring, eshigini yopib, 1–2 soat kuting.



## ⚠️ DIQQAT


- Drenaj shlangi egri shaklda o'rnatilgan bo'lsa, ichki qismi muzlab qolishi mumkin.
- Qopqoqni va qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini ochib, suvni butunlay chiqarib yuboring.



## IZOH


- Agar suv chiqib ketmasa, muz oxirigacha erimagan bo'ladi. Yana kuting.

- Barabandan suv batamom chiqarib yuborilgach, qoldiq suvni chiqarib tashlashda ishlatiladigan shlang tiqinini yopib, yuvish dasturini tanlang va **Boshlash/To'xtatish** tugmasini bosing.



## IZOH

- Chayish paytida kir yuvish vositalari tortmasiga suv kelayotganligini hamda siqish paytida drenaj shlangi orqali suv chiqib ketayotganligini tekshiring.
- Suv ta'minotida muammo yuz bersa, quyidagi choralarini ko'ring.
  - Jo'mrakni yopib, qaynoq suvga botirilgan mato qo'yib jo'mrakni hamda jihozga suv kirish shlangining ikkala ulangan joyini eriting.
  - Suv kirish shlangini chiqarib olib, 50–60 °C dan pastroq haroratli iliq suvga botiring.



Jihozdan foydalanishda xatoliklar va nosozliklar yuzaga kelishi mumkin. Quyida keltirilgan jadvallarda nosozliklar va xatoliklar yuzaga kelishi ehtimoliy sabablari va ularni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. LG Electronics kompaniyasi xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilish uchun sarflanadigan vaqtni tejash va xarajatlarni kamaytirish maqsadida quyidagi jadvaldagi ma'lumotlar bilan diqqat bilan tanishib chiqing.

## Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval

Sizning kir yuvish mashinangiz muammolar boshlanishidanoq ularni aniqlash va ularga tashxis qo'yish maqsadida avtomatik xatoni kuzatish tizimi bilan jihozlangan. Agar mashina to'g'ri ishlamasa yoki umuman ishlamasa, LG Electronics xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qilishdan oldin quyidagilarni tekshiring:

### Xato haqidagi xabarlar

| Alomatlari                                        | Ehtimolga ko'ra sababi va yechimi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|---------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>IE</b><br><b>SUV TA'MINOTI</b>                 | <b>O'sha joyda suv ta'minoti yetarli emas. Suv jihozga kirmayapti yoki sekin kirayapti.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Uydagi boshqa jo'mrakni tekshirib ko'ring.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                              |
|                                                   | <b>Suv ta'minoti jo'mragi to'liq ochilmagan. Suv jihozga kirmayapti yoki sekin kirayapti.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Jo'mrakni to'liq oching.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|                                                   | <b>Suv kirish shlang(lar)i bukilib qolgan.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Shlangni to'g'rilang yoki suv kirish shlangini qayta o'rning.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|                                                   | <b>Suv kirish shlanglari filtri tiqilib qolgan.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Suv kirish shlangi filtrini tekshiring va tozalang.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|                                                   | <b>Suv kirish shlangidagi suv sizib chiqsa, chirog'i qizilga o'zgaradi.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Suv sizib chiqishiga qarshi himoyaga ega suv kirish shlangini almashtiring.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                             |
| <b>DE</b><br><b>SUV CHIQARISH XATOSI</b>          | <b>Drenaj shlangi bukilib qolgan yoki tiqilib qolgan. Jihozdagi suv chiqarilmayapti yoki sekin chiqarilayapti.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Drenaj shlangini tozalang va to'g'rilang.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                        |
|                                                   | <b>Drenaj filtri tiqilib qolgan.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Drenaj filtrini tekshiring va tozalang.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <b>UE</b><br><b>MUVOZANAT BUZILGANLIGI XATOSI</b> | <b>Jihoz undagi muvozanatsizlikni aniqlovchi va tuzatuvchi tizim bilan jihozlangan.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>Kirlar siklining oxirida juda issiq bo'lishi mumkin, jihoz kirlarni tegishli tarzda siqishi uchun kirlarni qayta taqsimlab soling. Eshikni yoping va <b>Пуск/Пauза</b> tugmasini bosing. Jihoz siqishni boshlashi uchun bir necha soniya vaqt ketishi mumkin. Buning uchun eshik qulflangan bo'lishi kerak.</li> </ul> |



| Alomatlari                                            | Ehtimolga ko'ra sababi va yechimi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|-------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>UE</i><br><b>MUVOZANAT<br/>BUZILGANLIGI XATOSI</b> | <b>Juda oz kir yuklangan. Alohida og'ir buyumlar (masalan, vanna gilamchasi, cho'milish xalati va boshqalar) jihozga yuklansa, ushbu tizim siqish siklini butunlay to'xtatib qo'yishi mumkin.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yuklangan kirlarni muvozanatga keltirish uchun 1 yoki 2 ta bir xil yoki kichikroq kirlarni qo'shing. Eshikni yoping va <b>Пыск/Прызгa</b> tugmasini bosing. Jihoz siqishni boshlashi uchun bir necha soniya vaqt ketishi mumkin. Buning uchun uchun eshik qulflangan bo'lishi kerak.</li> </ul> |
| <i>дЕ дЕ1 дЕ2 дЕ4</i><br><b>ESHIK XATOSI</b>          | <b>Eshik datchigi noto'g'ri ishlayapti.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• LG Electronics xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling. Siz mahalliy LG Electronics xizmat ko'rsatish markazi telefon raqamini kafolat talonidan topishingiz mumkin.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <i>EE</i><br><b>BOSHQARUV XATOSI</b>                  | <b>Bu boshqaruv tizimi xatosidir.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Quvvat shnuri vilkasini rozetkadan uzing va xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| <i>LE</i><br><b>DVIGATEL ISHLASHIDA<br/>XATOLIK</b>   | <b>Dvigatelga yuklanish oshib ketgan</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Dvigatelning sovushi uchun 30 daqiqa jihozni ishlating va keyin siklni qaytadan ishga tushiring</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| <i>FE</i><br><b>TOSHIB KETISH<br/>XATOSI</b>          | <b>Suv klapani buzilgani uchun suv toshib ketmoqda.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Suv jo'mragini yoping.</li> <li>• Quvvat shnuri vilkasini rozetkadan uzing.</li> <li>• Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <i>PE</i><br><b>BOSIM SENSSORI<br/>XATOSI</b>         | <b>Suv darajasi datchigi noto'g'ri ishlayapti.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Suv jo'mragini yoping.</li> <li>• Quvvat shnuri vilkasini rozetkadan uzing.</li> <li>• Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| <i>US</i><br><b>TEBRANISH DATCHIGI<br/>XATOSI</b>     | <b>Tebranish datchigi noto'g'ri ishlayapti.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| <i>FF</i><br><b>MUZLAB QOLISH<br/>XATOSI</b>          | <b>Suv kirish/drenaj shlangi yoki drenaj nasosi muzlab qolganmi?</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Drenaj shlangi va drenaj nasosini muzdan tushirish uchun barabanga iliq suv quyung. Suv kirish shlangini nam va iliq mato bilan o'rang.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| <i>RE</i><br><b>SUV SIZIB CHIQISHI</b>                | <b>Suv sizib chiqmoqda.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <i>PF</i><br><b>QUVVAT TA'MINOTI<br/>XATOSI</b>       | <b>Jihozda elektr toki o'chib qolgan.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Siklni qaytadan ishga tushiring.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <i>dHE</i><br><b>QURTISHDA XATO</b>                   | <b>Kir qurimayapti.</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• LG xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |

## Jihozdan foydalanish vaqtida eshitalishi mumkin bo'lgan shovqinlar

| Alomatlari                                          | Ehtimolga ko'ra sababi va yechimi                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|-----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Qarsillagan va jaranglagan shovqin chiqmoqda</b> | <p><b>Baraban ichida kalit, tanga yoki to'g'nag'ich singari yot jismlar bo'lishi mumkin.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Jihozni to'xtating, barabanda begona buyumlar yo'qligini tekshiring. Agar jihoz qayta ishga tushirilgandan keyin shovqin chiqishi davom etsa, xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling.</li> </ul> |
| <b>Taqqillagan shovqin chiqmoqda</b>                | <p><b>Og'ir buyumlarni yuvishda taqqillagan shovqin chiqishi mumkin. Bu odatiy holat hisoblanadi.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Agar shovqin chiqaversa, jihoz muvozanatni yo'qotgan bo'lishi mumkin. Ishni to'xtatib, kirlarni qayta taqsimlang.</li> </ul>                                                                   |
|                                                     | <p><b>Yuviladigan kirlar noto'g'ri taqsimlab solingan bo'lishi mumkin.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Siklni to'xtatib qo'ying va eshik qulfi ochilgandan so'ng kirlarni qayta taqsimlang.</li> </ul>                                                                                                                           |
| <b>Tebranish shovqini chiqmoqda</b>                 | <p><b>Qadoqlash materiallari olib tashlanmagan.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Qadoqlash materiallarini olib tashlang.</li> </ul>                                                                                                                                                                                               |
|                                                     | <p><b>Barabanda yuviladigan kirlar noto'g'ri taqsimlangan bo'lishi mumkin.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Siklni to'xtatib qo'ying va eshik qulfi ochilgandan so'ng kirlarni qayta taqsimlang.</li> </ul>                                                                                                                       |
|                                                     | <p><b>Barcha sozlanadigan oyoqchalar ham polda mustahkam va tekis turavermaydi.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Jihozni tekislash uchun <b>Jihozni tekis joylashtirish</b> bo'limiga qarang.</li> </ul>                                                                                                                          |
|                                                     | <p><b>Pol yetarli darajada qattiq emas.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Polning qattiq va egilmaydigan ekanligini tekshiring. Mos joyni tanlash uchun <b>O'rnatiladigan joyga qo'yiladigan</b> bo'limiga qarang.</li> </ul>                                                                                                      |

## Ishlatish

| Alomatlari                 | Ehtimolga ko'ra sababi va yechimi                                                                                                                                                                                                                                      |
|----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Suv oqib ketayapti.</b> | <p><b>Uydagi drenaj quvurlari tiqilib qolgan.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Drenaj quvurini ochib yuboring. Zarur bo'lsa, santexnik chaqiring.</li> </ul>                                                                                             |
|                            | <p><b>Drenaj shlangi noto'g'ri o'rnatilganligi yoki tiqilib qolganligi sababli suv sizib chiqmoqda.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Drenaj shlangini tozalang va to'g'rilang. Drenaj filtrini muntazam ravishda tekshirib va tozalab turing.</li> </ul> |
| <b>Jihoz ishlamayapti.</b> | <p><b>Faolsizlik tufayli boshqaruv paneli o'chib qolgan.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Bu tabiiy holat. Jihozni yoqish uchun <b>Питание</b> tugmasini bosing.</li> </ul>                                                                              |
|                            | <p><b>Jihoz rozetkadan uzib qo'yilgan.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Vilkaning soz rozetkaga mahkam ulanganligiga ishonch hosil qiling.</li> </ul>                                                                                                    |
|                            | <p><b>Suv ta'minoti o'chirilgan.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Suv ta'minoti jo'mragini to'liq oching.</li> </ul>                                                                                                                                     |

| Alomatlari                                    | Ehtimolga ko'ra sababi va yechimi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
